Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydiyoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися.....	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления.....	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения.....	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari.....	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
<i>Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna</i>	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
<i>Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon</i>	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	810
<i>Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	814
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna</i>	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi</i>	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
<i>Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.....	829
<i>Farsaxonova Mastura Jalol qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
<i>Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li</i>	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
<i>Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi</i>	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
<i>Xurramov Anvar Xudayshukurovich</i>	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
<i>Yuliyaxshiyev Sherali Narzullayevich</i>	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
<i>Мамаджанова Мохимир Рашидовна</i>	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida).....	861
<i>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari.....	867
<i>Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi</i>	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	871
<i>Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna</i>	

Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirni inobatga olish zarurati	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni.....	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbor qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari.....	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugapporovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari ...	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	



Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati	962
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi logopat bolalarning emotsional intellektini shakllantirish usullari.....	966
Ro'ziqulova Zarina Yusupovna	
Sahnalashtirish va tasviriy faoliyat integratsiyasi – badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida	969
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Usmonaliyeva Yulduz Baxrom qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy kompetensiyani rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'rnini	974
Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi	
Maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....	978
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Ro'zmetova Yulduz Odilbek qizi	
Ta'lim va ishlab chiqarish klasterining nazariy-asosiy jihatlari	983
Samadova Mahbuba Nutfullo qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyati jarayonida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	987
Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Nozimjonova Xojiya Mo'minjon qizi	
15-16 yoshli taekvondochilar muvozanat saqlash turg'unligi va harakat aniqligining mashg'ulot jarayonlarida o'sish sur'ati.....	991
G. X. Ravshanov, A. X. Norov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suhandonlik to'garagining bolalar nutqi va kommunikativ rivojiga ta'siri..	997
Abduraximova Shahnoza Alikulovna	
Bo'lajak pedagoglarda inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	1000
Asadova Nozima Abdixalil qizi, O. P. Aslanova	
O'zbekistonda sport sohasini digitalizatsiya qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari.....	1003
B. Y. Hamrayev	
Pedagogik akmeologiya nuqtai nazaridan o'qituvchining prognozlash faoliyati	1008
Bekmuratov Arziwbay Kojamuratovich	
Milliy ta'lim tizimini isloh qilishda timss xalqaro baholash tadqiqotining o'rnini.....	1011
Darvishxo'jayev Abdurashid Abdulxakimovich	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida reflektiv tafakkurni rivojlantirish mazmuni	1015
Dostonbek Bobojonov G'ofurovich	
Maktabgacha ta'lim jarayonida rag'batlantirish tizimidan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1019
Umarova Mohichehra Ikromjon qizi	
Kichik maktab davrida ma'naviy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	1023
To'laganova Mohinur Abduhakim qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy usullari.....	1026
Maxmudov Baxodirjon Baxromjon o'g'li	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida rivojlantirish.....	1030
Najmiddinova Gulnoza Odilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik ishlarni tashkil etish mazmuni	1035
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayeva	
Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy qarashlar.....	1038
Raximova Intizor Rustamovna	
Raqamli resurslar asosida ertak va she'riy matnlar bilan ishlashning innovatsion metodlari	1041
Sabirova Gullola G'ayratovna	
Феномен русскоязычной литературы Узбекистана как пространство культурной памяти и художественного самоопределения.....	1045
Чернова Татьяна Алексеевна	



MILLIY TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHDA TIMSS XALQARO BAHOLASH TADQIQOTINING O'RNI

Darvishxo'jayev Abdurashid Abdulxakimovich

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'limni isloh qilish jarayonida TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) tadqiqotining milliy ta'lim tizimlaridagi strategik o'rni va pedagogik amaliyotlarga ta'sirini tizimli tahlil qiladi. Tadqiqot sintetik-komparativ va kontekstual yondashuvlar orqali o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha yutuqlari, maktab resurslari hamda o'qituvchilarning malakasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi. Maqola xalqaro baholash natijalarini milliy kontekst bilan bog'lab, siyosiy va pedagogik qarorlarni empirik dalillarga tayangan holda shakllantirish mexanizmlarini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada TIMSS tadqiqotining kuchli va zaif tomonlari, metodologik cheklavlari hamda doimiy monitoring tizimi bilan bog'liq masalalar ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini oshirish, pedagogik metodlarni optimallashtirish va milliy ta'lim siyosatini ilmiy asosda rivojlantirish bo'yicha strategik tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: TIMSS, xalqaro baholash, pedagogik amaliyot, o'quvchilarning bilim yutuqlari, maktab resurslari, milliy ta'lim siyosati, ta'limni isloh qilish, kontekstual monitoring.

Abstract: This article systematically analyzes the strategic role of TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) in national education systems and its impact on pedagogical practices in the process of educational reform. Using synthetic-comparative and contextual approaches, the study examines the relationships between students' achievements in mathematics and science, school resources, and teachers' qualifications. The article links international assessment results with the national context and demonstrates mechanisms for shaping policy and pedagogical decisions based on empirical evidence. Furthermore, the study analyzes the strengths and limitations of TIMSS, its methodological constraints, and issues related to continuous monitoring systems. The findings provide strategic recommendations for improving the quality of education, optimizing pedagogical methods, and developing national education policies on an evidence-based foundation.

Key words: TIMSS, international assessment, pedagogical practice, student learning outcomes, school resources, national education policy, education reform, contextual monitoring.

Аннотация: В статье систематически анализируется стратегическая роль исследования TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) в национальных системах образования и его влияние на педагогическую практику в процессе реформирования образования. С использованием синтетико-компаративного и контекстуального подходов исследование выявляет взаимосвязь между достижениями учащихся по математике и естественным наукам, ресурсами школ и квалификацией преподавателей. Статья связывает результаты международной оценки с национальным контекстом и демонстрирует механизмы формирования образовательной политики и педагогических решений на основе эмпирических данных. Кроме того, анализируются сильные и слабые стороны TIMSS, методологические ограничения и вопросы, связанные с системами постоянного мониторинга. Полученные результаты предоставляют стратегические рекомендации по повышению качества образования, оптимизации педагогических методов и развитию национальной образовательной политики на основе доказательной базы.

Ключевые слова: TIMSS, международная оценка, педагогическая практика, достижения учащихся, школьные ресурсы, национальная образовательная политика, реформирование образования, контекстуальный мониторинг.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda ta'lim sifati va uning samaradorligini baholash global ta'lim siyosatining eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bu, birinchi navbatda, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari milliy iqtisodiy rivojlantirish hamda global raqobatbardoshlikka bevosita ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, ta'lim tizimlarini ilmiy asosda monitoring qilish va islohotlarni samarali boshqarish imkoniyati hukumatlar hamda ta'lim siyosatchilari uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Ta'lim islohotlarini siyosiy qarorlar yoki an'anaviy yondashuv-

lar asosida shakllantirish tizimli muammolarni aniqlash va samarali yechimlarni ishlab chiqishga yetarli imkon bermaydi ^[1]. Ta'lim tizimlarining sifatini oshirish va samaradorligini ta'minlash uchun dalillarga asoslangan siyosat hamda keng ko'lamli monitoring mexanizmlari zarur. Bu mexanizmlar o'quv dasturlarini optimallashtirish, maktab resurslarini samarali taqsimlash va o'qituvchilar malakasini oshirishga imkon beradi ^[2].

Xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan baholash dasturlari, xususan, TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha yutuqlarini baholash bilan birga, ta'lim tizimlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashda strategik vosita sifatida tan olinadi.

TIMSSning kontekstual so'rovnomalari maktab resurslari, o'qituvchilar malakasi va pedagogik amaliyotni baholash imkonini beradi, bu esa milliy ta'lim siyosatini ilmiy asosda shakllantirish va pedagogik metodlarni takomillashtirishga xizmat qiladi ^[3]. Ya'ni, o'quvchilarning yutuqlari faqat test natijasi sifatida emas, balki o'quv muhiti, maktab resurslari, o'qituvchilar malakasi va dars metodikalari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, agar bir sinfda o'quvchilar past natija ko'rsatgan bo'lsa, shunchaki ballga qarash yetarli emas. Kontekstual yondashuv esa quyidagilarni o'rganadi: sinfning laboratoriya jihozlari yetarlimi? O'qituvchi malakasi pastmi? Dars metodikasi samarali qo'llanilayaptimi? Tahlil aynan shu sharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun ushbu tadqiqotning maqsadi – ta'limni isloh qilish jarayonida TIMSS tadqiqotining o'rnini va uning milliy ta'lim siyosatiga ta'sir mexanizmlarini tizimli tahlil qilishdir.

Tadqiqot quyidagi vazifalarni bajaradi:

- TIMSS tadqiqotining nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilish;
- TIMSS natijalarining milliy ta'lim siyosati va pedagogik amaliyotga ta'sirini aniqlash;
- TIMSS asosida ta'lim islohotlarini rejalashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini baholash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar bir necha yo'nalishda shakllangan. Dalillarga asoslangan ta'lim siyosati va baholash natijalarining boshqaruv qarorlariga integratsiyasi masalalarini o'rgangan A. Schleicher, A. Burns va E. Köster ta'lim monitoringini tizimli islohotlarni rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiluvchi strategik mexanizm sifatida talqin qiladi.

TIMSS tadqiqotlarining konseptual asoslari va natijalarini ta'lim siyosati bilan bog'liq holda sharhlagan U. V. Mullis va M. O. Martinning "TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science" hisobotida o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha yutuqlari o'quv dasturi mazmuni, o'qitish amaliyoti hamda maktab resurslari bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilinib, bu ko'rsatkichlar milliy ta'lim tizimlarida islohot yo'nalishlarini belgilashda diagnostik indikator sifatida qo'llanishi asoslab berilgan. Bunda TIMSS tadqiqotlari o'quvchilarning matematik va tabiiy fanlar bo'yicha tayyorgarligini baholash bilan bir qatorda, o'quv muhiti, o'qituvchi omili va maktab resurslari bilan bog'liq kontekstual ko'rsatkichlarni ham qamrab oluvchi kompleks monitoring modeli sifatida izohlanadi.

Ta'lim tizimlarida xalqaro baholash natijalaridan siyosiy qarorlar qabul qilishda foydalanish mexanizmlarini tahlil qilgan A. Schleicherning "World Class: How to Build a 21st-Century School System" asarida yirik ko'lamli baholash tadqiqotlari, jumladan, TIMSS va PISA natijalari o'quv dasturlarini yangilash, o'qituvchi siyosatini takomillashtirish hamda ta'lim sifatini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda empirik asos vazifasini bajarishi ko'rsatib berilgan.

Ta'lim natijalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'lchash va baholash indikatorlarini ishlab chiqish masalalarini yoritgan A. Schleicher, F. Benavot va M. Fullan baholash tizimlarini faqat natijani qayd etuvchi vosita emas, balki ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan qayta aloqa mexanizmi sifatida baholaydi. Pedagogik o'lchov nazariyasi doirasida baholash vositalarining validligi va ishonchligini asoslab bergan L. Crocker va J. Algina, R. K. Hambleton hamda H. Swaminathan monitoring tizimlarida o'lchov aniqligi va diagnostik imkoniyatlar ta'lim sifati haqidagi xulosalarning ilmiy asoslanganligini belgilashini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil yondashuvi sifatida sintetik-komparativ metod qo'llanilgan: avval tadqiqot natijalari mavzu doirasida kategoriyalarga ajratilgan, so'ngra ular milliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va islohotlar bilan bog'lab o'rganilib, indikatorlarning samaradorligi baholangan. Shu yo'l bilan TIMSS ma'lumotlari orqali o'quvchilarning bilim darajasi, pedagogik amaliyot sifati va maktab resurslari o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotda kontekstual tahlil metodlari qo'llanilgan: har bir milliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar (o'quv dasturlarini yangilash, o'qituvchi malakasini oshirish, resurslarni samarali taqsimlash) va TIMSS natijalari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan. Bu yondashuv orqali xalqaro baholash tadqiqotlarining milliy siyosat va pedagogik amaliyotni shakllantirishdagi strategik ahamiyati ilmiy asosda ko'rsatildi.



Tadqiqot davomida kritik tahlil va solishtirma baholash metodlari ham qo'llanildi. Ular TIMSS natijalarining o'zaro solishtirilishini, shuningdek, milliy o'quv dasturlari va pedagogik standartlar bilan integratsiyasini aniqlash imkonini berdi. Shu bilan birga, tadqiqotda mavjud cheklovlar ham ko'rib chiqildi: masalan, TIMSS natijalari faqat 4 va 8-sinf o'quvchilari yutuqlari asosida, shuningdek, faqat tabiiy fanlar va matematika fanlari qamrovi doirasida olinadi. Shuning uchun TIMSS barcha ta'lim bosqichlarini qamrab olmaydi; ba'zi indikatorlar pedagogik amaliyot sifatini chuqur o'lchash uchun yetarli emas.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, TIMSS tadqiqoti milliy ta'lim tizimi va pedagogik amaliyotlar uchun bir nechta muhim mexanizmlarni ochib beradi. Masalan, o'quvchilarning yutuqlari hamda mamlakatlar bo'yicha taqqoslanadigan natijalar ta'lim dasturlari samaradorligini baholash, o'qituvchilarning metodik yondashuvlari va sinfdagi pedagogik faoliyat sifatini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, TIMSS ma'lumotlari o'quvchilarning matematik va tabiiy fanlar bo'yicha ko'nikmalaridagi kuchli hamda zaif tomonlarni aniqlashga, resurslarni maqsadli taqsimlash va milliy ta'lim siyosatini takomillashtirish uchun asos yaratadi. Natijada, ushbu tadqiqotlar ta'lim tizimining sifatini oshirish, pedagogik strategiyalarni modernizatsiya qilish va o'quvchilarning fundamental kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, TIMSS tadqiqotida ishtirok etgan ayrim davlatlarning natijalari bo'yicha tahlil qilsak (diagramma) ^[4].

Diagramma. TIMSS tadqiqotlarida ayrim davlatlar 8-sinf o'quvchilarining tabiiy fanlardan o'rtacha natijalari. Grafikdan ko'rinib turibdiki, Singapur o'quvchilarida ijobiy o'sish kuzatilgan. Singapur hukumati ta'lim tizimini eng innovatsion va nufuzli sohalaridan biri sifatida shakllantirishga muvaffaq bo'lgan, u yerda ishlash va o'qish qulay hamda qiziqarli hisoblanadi. Ta'lim rivoji milliy loyihaga aylangan bo'lib, unda barcha fuqarolar ishtirok etgan va hukumat unga maksimal qo'llab-quvvatlash ko'rsatgan, bu esa tizimning aholi ko'zidagi qadr-qimmatini oshirgan ^[5].

Janubiy Koreyaning natijalari yuqori va deyarli barqaror. Janubiy Koreyada bizning mamlakatimizdan farqli o'laroq, ta'limni boshqarish strukturasi barcha tizimlar uchun yagona bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimlari vazirligidan iborat. 1980-yildan boshlab hukumat iqtisodiyotni yaxshilash maqsadida ta'limga e'tiborni kuchaytirdi. Buning natijasida 1990-yilga kelib savodxonlik darajasi 98,5%ni tashkil etdi. 1990-yilda Koreya hukumati yalpi milliy mahsulotning 4,5%ini ta'limga yo'naltirgan bo'lib, bu Tayvanga nisbatan 3,6%ga yuqori bo'lgan. Yevropada esa bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lib, Vengriyada 6,1%, Fransiya 7,5%ni tashkil etgan ^[6].

Eron o'quvchilarining TIMSS natijalari 1999-2011-yillarda o'sish ko'rsatgan bo'lsa-da, oxirgi yillarda keskin pasayish kuzatilgan (474 dan 419 ballgacha). Bu pasayish, asosan, Eron ta'lim tizimida amalga oshirilgan qisqa muddatli islohotlar, resurslar yetishmasligi va pedagogik standartlarning noaniqligi bilan bog'liq ^[7]. Eronning TIMSS va PIRLS natijalari tahlil qilingan rasmiy UNESCO hisobotida Eron ta'lim tizimida o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab sharoitlari bo'yicha o'zgarishlar o'rganilgan bo'lib, mazkur omillar Eron o'quvchilari bilim ko'rsatkichlarining pasayishiga ta'sir qilganligi ko'rsatib o'tilgan ^[8]. TIMSS so'rovnomalari o'quvchilarning yutuqlari bilan maktabdagi resurslar, o'qituvchi malakasi va metodika o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga imkon beradi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, yuqori sifatli laboratoriya jihozlari, kitoblar va o'qituvchilarning malakasi o'quvchilarning tabiiy fanlar hamda matematika bo'yicha ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi ^[9].

TIMSS natijalari milliy ta'lim siyosatini ilmiy asosda shakllantirish, o'quv dasturlarini optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlashda strategik instrument sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga, pedagogik metodlarni takomillashtirish va o'qituvchilarning malakasini oshirishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilish imkonini beradi ^[9].

Munozara. Natijalar shuni ko'rsatadiki, TIMSS tadqiqoti milliy ta'lim tizimlarida sifatni oshirish va pedagogik amaliyotlarni optimallashtirish uchun strategik vosita sifatida qo'llaniladi. Biroq, tadqiqot natijalari va adabiyotlar tahlili bir nechta tanqidiy jihatlarni ham ochib beradi.

- 1. Ilmiy asosda siyosatni shakllantirish.** TIMSS natijalari milliy ta'lim siyosatini empirik dalillar bilan qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ba'zi mamlakatlarda ushbu natijalar to'liq va tizimli tarzda milliy kontekstga moslashtirilmagan, bu esa siyosatda noto'g'ri talqin qilish xavfini oshiradi ^[2].
- 2. Pedagogik amaliyot va o'quv dasturlarini yangilash.** Tahlil shuni ko'rsatadiki, TIMSS orqali aniqlangan pedagogik amaliyotlarning samaradorligi milliy darajada qo'llanilayotgan dars metodlari bilan to'liq integratsiya qilinmagan. Bu esa natijalarni o'quvchilarning yutuqlariga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatini kamaytiradi ^[3].

3. **Cheklovlar va metodologik masalalar.** TIMSSning so'rovnomalari va indikatorlari o'quvchilarning individual hamda maktab kontekstini o'lchash imkonini beradi, lekin pedagogik amaliyot sifatini chuqur baholash imkoniyatlari cheklangan ^[9]. Shuningdek, ba'zi mamlakatlarda doimiy monitoring tizimi yetarlicha rivojlanmagan, bu esa tizimli islohotlarni amalga oshirishni murakkablashtiradi.
4. **Xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirish.** PISA va PIRLS tadqiqotlari bilan solishtirganda, TIMSS ko'proq tabiiy fanlar hamda matematika yutuqlariga yo'naltirilgan, shuning uchun umumiy kompetensiyalar va global ko'nikmalarni baholash uchun qo'shimcha tadqiqotlar zarur ^[10].

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, TIMSS tadqiqoti ta'limni isloh qilish jarayonida muhim strategik vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot orqali aniqlangan asosiy mexanizmlar quyidagilardir:

1. **Ta'lim sifatini baholash** – TIMSS milliy ta'lim tizimidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash imkonini beradi, bu esa siyosat va pedagogik qarorlarni ilmiy asos bilan shakllantirish imkoniyatini yaratadi ^[11].
2. **Pedagogik amaliyotlarni optimallashtirish** – kontekstual so'rovnomalardan orqali dars metodikalari va maktab resurslarining samaradorligi tahlil qilinadi, bu esa o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar beradi ^[3].
3. **Milliy ta'lim siyosatini shakllantirish** – TIMSS natijalari siyosatchilarga empirik dalillar asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi, o'quv dasturlarini optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlashda strategik instrument bo'lib xizmat qiladi ^[9].

Shuningdek, tadqiqot ba'zi cheklovlar va yetarlicha o'rganilmagan jihatlarni ham aniqladi: pedagogik amaliyot sifatini chuqur baholash, natijalarni milliy kontekstga moslashtirish hamda doimiy monitoring tizimini rivojlantirish hozirgi kunda yetarlicha amalga oshirilmagan ^[12].

O'rganilgan natijalarga ko'ra, shuni ta'kidlash mumkinki, TIMSS tadqiqoti milliy ta'lim tizimlarini ilmiy asosda rivojlantirish, pedagogik metodlarni takomillashtirish va siyosatni dalillarga asoslash uchun samarali vosita hisoblanadi. Milliy monitoring tadqiqotlarini TIMSS tajribalariga asoslanib, barcha fanlarni qamrab olgan holda kompetensiyalar bilan integratsiya qilish hamda doimiy monitoring tizimlarini rivojlantirishga yo'naltirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. C. George, P. D. Victoria, L. Monica (2018). Quality in Education - Approaches and Frameworks. // The Journal "Ovidius University Annals, Economic Sciences Series". Volume XVIII, Issue 2-2018. <https://stec.univ-ovidius.ro/html/anale/ENG/ovidius-university-annals-economic-sciences-series-volume-xviii-issue-2-2/>.
2. OECD (2021). Evidence-Based Policy in Education: Practices and Challenges. // OECD Publishing, Paris. <https://www.oecd.org/education/>.
3. M. C. Martin, I. V. S. Mullis, P. J. Foy (2019). TIMSS Context Questionnaires Framework. // Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, Chestnut Hill, MA. <https://timssandpirls.bc.edu>.
4. von Davier, M., Kennedy, A., Reynolds, K., Fishbein, B., Khorramdel, L., Aldrich, C., Bookbinder, A., Bezirhan, U., & Yin, L. (2024). TIMSS 2023 International Results in Mathematics and Science. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center. <https://doi.org/10.6017/lse.tpisc.timss.rs6460>.
5. Hairon, S. (2022). Overview of Education in Singapore. In L. P. Symaco & M. Hayden (Eds.), International Handbook on Education in South East Asia. Springer Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-16-8136-3_2-1.
6. S.-I. Park (2018). Ta'lim sohasidagi davlat siyosati, ta'lim sohasidagi islohotlarni boshqarish tajribasi.
7. Shahbazi, M., & Bakhshandeh, M. (2018). Challenges in Iranian Education Reforms: Evidence from International Assessments. Journal of Educational Policy Studies, 12(3).
8. Factors Influencing Changes in Learning Achievement: Iran's Performance in TIMSS and PIRLS 2003-2011. PDF. https://neqmap.bangkok.unesco.org/wp-content/uploads/2019/12/15_08_05_TIMSS_Iran.pdf?utm_source=chatgpt.com.
9. Rubio, M. T., & Colleagues (2025). The Learning Crisis: TIMSS Data in Post-Pandemic Education. // International Journal of Educational Research, Volume 115-2025. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0883033825001234>.
10. OECD (2019). PISA 2018 Results. // OECD Publishing, Paris. <https://www.oecd.org/pisa/publications/pisa-2018-results.htm>.
11. U. V. Mullis, I. V. S. Martin, P. J. Foy, M. Hooper (2020). Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) 2019: International Results. // Boston College. <https://timssandpirls.bc.edu>.
12. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Arora, A. (2012). TIMSS 2011 International Results. // Boston College. <https://timssandpirls.bc.edu>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.